

“AYOLLAR DAFTARI”GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA TADBIRKORLIK BILAN SHUG’ULLANISHI UCHUN KREDITLAR AJRATILADI

Qo’shtepa tumanida “Ayollar daftari”ga kiritilgan tadbirkorlik faoliyatini yo’lga qo’yish uchun kredit olish istagida bo’lgan ayollar bilan amaliy seminar o’tkazildi.



—Seminarida tuman hokimining xotin-qizlar masalari buyicha maslahatchisi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Mo'minova, Xalq banki tuman filiali boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Bobobekova, mahalla fuqarolar yig'ini raislarining o'rinbosarlari va “Ayollar daftari”ga

kiritilgan xotin-qizlar ishtirok etdilar.



Tadbirkorlik qilish va o'zining ish faoliyatini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan xotin-qizlarimizga tadbir davomida kredit olish tartiblari va talablari tushuntirib berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2021-01-20 13:00:39